

YOSHLARNI ISH BILAN TA'MINLASH VA ISHSIZLIKDAN HIMOYA QILISH IMKONIYATLARINI KENGAYTIRISH: INSTITUTSIONAL VA AMALIY YONDASHUVLAR

Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Demografiya.

Mehnat iqtisodiyoti" yo'nalishi tayanch doktoranti

Email: xusniddinovagulnoza@gmail.com

Tel: (+998)995259619

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20181205>

Annotatsiya: Mazkur maqolada yoshlarni ish bilan ta'minlash muammolari, ishsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini hamda ularni kamaytirishning zamonaviy mexanizmlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar bandligini oshirishda davlat siyosati, mehnat bozori infratuzilmasi va innovatsion yondashuvlarning o'rnini ochib beriladi. Shuningdek, yoshlarni ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari yoshlar bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar bandligi, ishsizlik, mehnat bozori, ijtimoiy himoya, bandlik siyosati, inson kapitali.

Kirish

Bugungi kunda yoshlar bandligini ta'minlash masalasi nafaqat alohida mamlakatlar, balki global miqyosda ham dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda¹. Aholi tarkibida yoshlar ulushining yuqoriligi mehnat bozoriga kirib kelayotgan ishchi kuchi hajmini oshirmoqda. Bu esa o'z navbatida mavjud ish o'rinlari bilan ta'minlash masalasini yanada murakkablashtiradi.

Yoshlar ishsizligi iqtisodiy yo'qotishlar bilan bir qatorda qator ijtimoiy muammolarni ham keltirib chiqaradi.² Jumladan, aholining daromadlari pasayishi, kambag'allik darajasining ortishi, tashqi mehnat migratsiyasining kuchayishi hamda ijtimoiy beqarorlik xavfi yuzaga keladi. Shu jihatdan yoshlarni ish bilan ta'minlash va ularni ishsizlikdan himoya qilish masalasi davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida e'tibor qaratishni talab etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.³ Xususan, yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, imtiyozli kreditlar ajratish hamda yangi ish o'rinlarini yaratish bo'yicha tizimli chora-tadbirlar joriy etildi. Biroq amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan, yoshlar bandligini ta'minlashda ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, hududlar kesimida bandlik darajasining turlicha ekanligi, mehnat bozori talablari va yoshlarning malakasi o'rtasidagi nomuvofiqlik kabi omillar dolzarb bo'lib qolmoqda.

Shu sababli yoshlarni ish bilan ta'minlash va ishsizlikdan himoya qilish imkoniyatlarini chuqur tahlil qilish, mavjud mexanizmlarning samaradorligini baholash hamda ushbu yo'nalishda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar

Yoshlar bandligi masalasi iqtisodiy adabiyotlarda keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, inson kapitali nazariyasiga ko'ra, shaxsning bilim va ko'nikmalari uning

¹ International Labour Organization. (2023). Global Employment Trends for Youth.

² World Bank. (2022). Youth Employment Programs.

³ O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). Yoshlar bandligi hisobotlari.

mehnat bozoridagi muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi.⁴ Ushbu yondashuv yoshlarni kasb-hunarga o'qitish va malakasini oshirish orqali bandlik darajasini oshirish mumkinligini asoslab beradi.

Xalqaro tashkilotlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham yoshlar ishsizligi muammosi alohida e'tibor markazida turadi. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti hisobotlarida yoshlar bandligi iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omili sifatida baholanadi.⁵ Shuningdek, Jahon banki tadqiqotlarida yoshlarni ish bilan ta'minlashda ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi uzviy bog'liqlik muhimligi ta'kidlanadi.⁶

Zamonaviy tadqiqotlarda yoshlar bandligini ta'minlash faqatgina ish o'rinlari yaratish bilan cheklanib qolmasdan, balki ularni iqtisodiy faol qatlamga aylantirish orqali amalga oshirilishi lozimligi qayd etiladi. Bu borada tadbirkorlikni rivojlantirish, startup loyihalarni qo'llab-quvvatlash va raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish muhim yo'nalishlar sifatida ko'rsatib o'tiladi.

Milliy darajada olib borilgan tadqiqotlar va rasmiy statistik ma'lumotlar ham yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha sezilarli ishlar amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi ma'lumotlarida yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasb-hunarga o'qitish va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar keng qamrovda amalga oshirilayotgani qayd etilgan.

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, yoshlar bandligini ta'minlash masalasi kompleks yondashuvni talab qiladi. Biroq ayrim tadqiqotlarda hududiy tafovutlar va bandlikning sifat ko'rsatkichlari yetarli darajada yoritilmagan bo'lib, bu esa mazkur yo'nalishda qo'shimcha ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etadi.

Mazkur tadqiqotda yoshlar bandligini ta'minlash va ishsizlikdan himoya qilish imkoniyatlarini tahlil qilish uchun turli ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Jumladan, statistik tahlil usuli asosida 2022–2024 yillarga oid rasmiy ma'lumotlar o'rganildi va umumlashtirildi. Ushbu ma'lumotlar yoshlar bandligi dinamikasini aniqlash hamda mavjud tendensiyalarni baholash imkonini berdi.⁷

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida turli hududlar kesimida bandlik ko'rsatkichlari solishtirildi. Bu esa hududlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash va ularning sabablarini tushuntirishga xizmat qildi. Tizimli yondashuv asosida esa yoshlar bandligini ta'minlashga ta'sir etuvchi omillar o'zaro bog'liqlikda o'rganildi.

Tadqiqot jarayonida empirik kuzatuv elementlaridan ham foydalanilib, mavjud amaliyot va dasturlar samaradorligi umumiy tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida yoshlar bandligini ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha ilmiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Asosiy qism

Yoshlar bandligi darajasi mamlakat iqtisodiy rivojlanish darajasining muhim indikatoridir. Mehnat bozoriga har yili kirib kelayotgan yoshlar sonining ortib borishi mavjud ish o'rinlari bilan ta'minlash muammosini keskinlashtirmoqda. Ish tajribasining yetishmasligi,

⁴ Gary Becker. (1993). Human Capital.

⁵ International Labour Organization. (2023). Global Employment Trends for Youth.

⁶ World Bank. (2022). Youth Employment Programs.

⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Aholi bandligi statistikasi.

malaka va bozor talablari o'rtasidagi nomuvofiqlik, norasmiy bandlikning yuqoriligi asosiy muommolardan bo'lib qolmoqda.

Yoshlar ishsizligi ta'lim tizimi va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzilish, kasbiy yo'naltirish tizimining sustligi, mehnat bozoridagi talab va taklif muvozanatining buzilishi va hududlar o'rtasidagi iqtisodiy nomutanosiblik kabi omillar bilan izohlanmoqda.

2022–2024 yillar davomida yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida respublikada jami 989768 nafar yosh ish bilan ta'minlangan.⁸ Ushbu ko'rsatkich so'nggi yillarda yoshlar bandligini oshirish borasida olib borilayotgan siyosatning amaliy natijalarini aks ettiradi.

Shuningdek, yoshlarni kasb-hunarga o'qitish yo'nalishida ham sezilarli natijalarga erishilgan bo'lib, 2022–2024 yillar davomida jami 217 255 nafar yosh turli kasb-hunar dasturlariga jalb etilgan.⁹ Bu esa yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirish va ularni barqaror ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy iqtisodiyot sharoitida raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yoshlar uchun yangi bandlik imkoniyatlarini yaratmoqda.¹⁰ Xususan, masofaviy ish shakllari, frilans faoliyat hamda onlayn xizmatlar bozori kengayib borayotgani yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda (OECD, 2021).

Yoshlar bandligini oshirishda faol bandlik siyosati, tadbirkorlikni rivojlantirish, raqamli iqtisodiyot imkoniyatlari muhim ahamiyatga ega. Bu kabi mexanizmlar kasbga qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish, subsidiyalangan ish o'rinlarini yaratish, davlat buyurtmalari asosida ish bilan ta'minlash, startup loyihalarni moliyalashtirish, imtiyozli kreditlar berish, biznes inkubatorlar tashkil etish, frilans va masofaviy ishlar tashkil etish, IT ko'nikmalarni rivojlantirish va onlayn platformalar orqali bandlikni ta'minlash dasturlarini yo'lga qo'yish orqali amalga oshiriladi.

Yoshlarni ijtimoiy himoya qilish ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy xizmatlar, psixologik va kasbiy maslahatlar orqali amalga oshiriladi. Bu choralarda esa yoshlarning mehnat bozoriga qayta integratsiyasini ta'minlaydi.

Natijalar va muhokama

Yoshlar bandligini ta'minlash jarayoni ko'p omilli va murakkab tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu jarayonda nafaqat iqtisodiy omillar, balki ijtimoiy va institutsional sharoitlar ham muhim rol o'ynaydi.¹¹ Xususan, mehnat bozorida talab etilayotgan kasb va mutaxassisliklar bilan yoshlarning mavjud bilim va ko'nikmalari o'rtasidagi nomuvofiqlik bandlik muammosining asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

So'nggi yillarda yoshlar bandligini ta'minlashda davlat tomonidan turli mexanizmlar joriy etildi. Jumladan, yoshlarni kasb-hunarga o'qitish, ularni tadbirkorlik faoliyatiga jalb qilish, imtiyozli kreditlar ajratish hamda subsidiyalar orqali qo'llab-quvvatlash amaliyoti kengaydi. Bu chora-tadbirlar yoshlarning o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, bandlik masalasini hal etishda raqamli iqtisodiyotning o'rni ham ortib bormoqda. Masofaviy ish shakllari, frilans faoliyat va onlayn xizmatlar bozori yoshlar uchun

⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Aholi bandligi statistikasi.

⁹ O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). Yoshlar bandligi hisobotlari.

¹⁰ OECD. (2021). Youth Employment Outlook.

¹¹ World Bank. (2022). Youth Employment Programs.

yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalari sohasidagi kasblarga bo'lgan talabning oshib borishi yoshlarni ushbu yo'nalishga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yoshlar bandligini ta'minlashda hududiy xususiyatlarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Ayrim hududlarda sanoat va xizmat ko'rsatish sohasi rivojlangan bo'lsa, boshqalarida agrar sektor ustunlik qiladi. Shu sababli har bir hudud uchun moslashtirilgan bandlik dasturlarini ishlab chiqish samaraliroq natija beradi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, yoshlar bandligini oshirish kompleks yondashuvni talab etadi, ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi muhim omil hisoblanib, innovatsion bandlik shakllari esa bandlikni oshirishda katta imkoniyatlarga ega.

Bundan tashqari, yoshlarni ish bilan ta'minlashda kasbiy yo'naltirish tizimining o'rni ham katta. Maktab va oliy ta'lim bosqichida yoshlarni mehnat bozori talablariga mos ravishda yo'naltirish, ularga real kasblar haqida tushuncha berish kelgusida bandlik darajasini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi omillarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, yoshlar bandligini ta'minlash faqatgina ish o'rinlari yaratish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon ta'lim tizimi, iqtisodiy siyosat va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro uyg'unlikni talab etadi. Aynan shunday integratsiyalashgan yondashuv orqali yoshlarni barqaror va sifatli bandlik bilan ta'minlash mumkin.

1-jadval

2022-2024 yillarda O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlash¹² ko'rsatkichlari

No		Bandlik holati				Kasb xunar			
		2022 yil	2023 yil	2024 yil	Jami	2022 yil	2023 yil	2024 yil	Jami
	Hududlar	nafar	nafar	nafar	nafar	nafar	nafar	nafar	nafar
	Jami	144 652	451 705	393 411	989 768	72 749	66 365	78 141	217 255
1	Qoraqalpog'i ston R.	11 187	24 543	33 326	69 056	6 111	6 148	5 474	17 733
2	Andijon viloyati	7 985	41 200	45 099	94 284	4 304	1 961	5 817	12 082
3	Buxoro viloyati	10 919	29 346	26 804	67 069	4 175	4 241	5 351	13 767
4	Jizzax viloyati	6 863	13 055	20 345	40 263	5 623	3 350	5 692	14 665
5	Qashqadaryo viloyati	10 755	64 511	29 214	104 480	6 526	7 004	7 084	20 614
6	Navoiy viloyati	6 911	13 748	12 830	33 489	2 440	2 323	3 097	7 860
7	Namangan viloyati	14 510	35 925	34 267	84 702	6 372	6 346	5 757	18 475
8	Samarqand viloyati	14 782	54 573	42 308	111 663	5 797	9 751	5 837	21 385
9	Surxondaryo viloyati	5 914	10 659	14 350	30 923	3 152	2 811	3 389	9 352

¹² Yoshlar agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan

10	Sirdaryo viloyati	7 480	35 516	29 483	72 479	6 110	6 278	5 824	18 212
11	Toshkent viloyati	14 519	26 386	24 149	65 054	5 217	3 010	7 542	15 769
12	Farg'ona viloyati	15 884	60 604	36 815	113 303	6 050	4 839	4 894	15 783
13	Xorazm viloyati	9 060	25 658	30 954	65 672	5 509	5 699	8 212	19 420
14	Toshkent shahri	7 883	15 981	13 467	37 331	5 363	2 604	4 171	12 138


Jadval ma'lumotlari asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, 2022–2024 yillar davomida yoshlar bandligini ta'minlash borasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Xususan, 2022 yilda 144 652 nafar yosh bandlik dasturlari orqali qamrab olingan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich keskin oshib, 451 705 nafarga yetgan. 2024 yilda esa 393 411 nafar yosh ish bilan ta'minlangan bo'lib, bu 2022 yilga nisbatan ancha yuqori natija hisoblanadi.

Mazkur dinamikani tahlil qilganda, 2023 yildagi keskin o'sish bandlik dasturlarining kengaytirilgani hamda yangi mexanizmlarning joriy etilgani bilan izohlanadi. 2024 yilda ko'rsatkich biroz pasaygan bo'lsa-da, umumiy natija barqaror yuqori darajada saqlanib qolgan.

Kasb-hunarga o'qitish yo'nalishi ham muhim o'rin tutadi. Uch yil davomida jami 217 255 nafar yosh kasb-hunar dasturlariga jalb qilingan. Bu esa yoshlarning mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilayotganini ko'rsatadi. Ayniqsa, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish orqali yoshlarni ish bilan ta'minlash imkoniyatlari kengaymoqda.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda esa ayrim farqlar kuzatiladi. Jumladan, Samarqand, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlarida ko'rsatkichlar nisbatan yuqori bo'lsa, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida pastroq natijalar qayd etilgan. Bu esa hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, infratuzilma va mavjud imkoniyatlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, keltirilgan ma'lumotlar yoshlar bandligini ta'minlashda kompleks yondashuv qo'llanilayotganini ko'rsatadi. Biroq hududlar o'rtasidagi tafovutlar hamda erishilgan natijalarning barqarorligi kabi masalalar kelgusida yanada chuqurroq o'rganishni talab etadi.



1-rasm. 2022-2024 yillarda Oʻzbekistonda yoshlar bandligini taʼminlash koʻrsatkichlari oʻzgarish dinamikasi¹³

Ushbu diagrammada 2022–2024 yillar davomida yoshlar bandligini taʼminlash koʻrsatkichlarining oʻzgarish dinamikasi aks ettirilgan. Maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, 2022 yildan 2023 yilga oʻtishda sezilarli oʻsish kuzatilgan. Bu davrda bandlik dasturlarining kengaytirilgani va yangi mexanizmlarning joriy etilgani natijaga ijobiy taʼsir koʻrsatgan.

2024 yilda koʻrsatkichlarda maʼlum darajada pasayish kuzatiladi, biroq bu kamayish umumiy tendensiyaning salbiy tomonga oʻzgartirmaydi. Aksincha, 2024 yil natijalari 2022 yilga nisbatan yuqori darajada saqlanib qolganini koʻrish mumkin. Bu esa olib borilayotgan bandlik siyosati izchil davom etayotganini bildiradi.

Umuman olganda, kuzatilgan dinamika yoshlar bandligini taʼminlash sohasida tizimli yondashuv shakllanib borayotganini koʻrsatadi.

Xulosa va takliflar

Yoshlarni ish bilan taʼminlash va ishsizlikdan himoya qilish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri boʻlishi zarur. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. yoshlar bandligi muammosi tizimli yondashuvni talab qiladi;
2. taʼlim tizimini mehnat bozori talablariga moslashtirish zarur;
3. tadbirkorlikni rivojlantirish yoshlar bandligini oshirishning samarali vositasi hisoblanadi.

Tadqiqotimiz natijasida qilingan taklif va tavsiyalar esa yoshlar bandligini oshirishda dual taʼlim tizimini keng joriy etish, yoshlar uchun maxsus bandlik dasturlarini ishlab chiqish, hududiy bandlik markazlari faoliyatini kuchaytirish hamda raqamli koʻnikmalarni rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratish zaruriyatiga qaratilgan.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi. (2024). Aholi bandligi va mehnat

¹³ Yoshlar ishlari agentligi maʼlumotlari asosida muallif tamonidan tayyorlangan

bozori ko'rsatkichlari. Toshkent.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar bandligini ta'minlashga oid qarorlari va farmonlari. (2022–2024).
3. International Labour Organization (ILO). (2023). Global Employment Trends for Youth. Geneva.
4. World Bank. (2022). Youth Employment and Labor Market Dynamics. Washington, DC.
5. Becker, G. S. (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis. University of Chicago Press.
6. OECD. (2021). Youth Employment Policies and Labour Market Outcomes. Paris.
7. O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi. (2024). Yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha hisobotlar.
8. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2020). Economic Development. Pearson Education.